nafaqat romantik ehtiros, balki inson ruhining kamolotiga olib boruvchi, shaxsni sinovdan o‘tkazuvchi va ichki kuchlarini uyg‘otuvchi asosiy badiiy mavzu hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil. Bayron va Nodirabegim she’riyatida tabiat va muhabbat konseptlari uzviy bog‘langan bo‘lsa-da, ularni talqin qilish uslubi va g‘oyaviy-estetik funksiyasi jihatidan farq qiladi. Bayronning romantik poetikasida tabiat – Lok-na-Gar tog‘lari, sharsharalar va chaqmoqlar orqali inson ruhining ehtirosi va erkinlik intilishlarini ramziy tarzda namoyon qiluvchi sublim qudrat (estetik ulug‘vorlikning eng yuqori darajasi) sifatida tasvirlanadi. Tabiat va muhabbat Bayron uchun inson idrokini kengaytiruvchi va ichki dunyoni uyg‘otuvchi kuch bo‘lib, romantik tragizm va insoniy iztirob bilan uyg‘unlashadi. Shunga qaramay, Nodirabegim g‘azallarida tabiat muhabbatni aks ettiruvchi estetik va lirizm vositasi sifatida ishlatiladi. Bahor, gullar va osmon elementlari lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini ochib beruvchi ramzlar bo‘lib, muhabbat insonning ichki kechinmalari, ehtiros va iroda bilan bog‘langan shaxsiy tajriba sifatida tasvirlanadi. Nodira ijodida tabiat tasviri Bayronnikiga nisbatan nozikroq, psixologik va lirik ohangga ega, biroq muhabbat konsepti inson ruhining kamoloti va ichki o‘sishini aks ettiruvchi kuch sifatida o‘xshash funksiyani bajaradi. Shunday qilib, ingliz va o‘zbek romantik poetikasida tabiat va muhabbat konseptlari umumiy g‘oyaviy-estetik asosga ega bo‘lsa-da, Bayron romantik tragizm va sublim qudratga urg‘u bersa, Nodirabegim lirik noziklik va psixologik uyg‘unlikni ta’kidlaydi. Ikkala ijodkor uchun ham tabiat muhabbatning ichki, ruhiy va estetik jarayonini ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz romantik poetic tilida Bayron va o‘zbek romantik poetikasida Nodirabegim ijodida tabiat va muhabbat konseptlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan estetik va g‘oyaviy funksiyaga ega ekanligi aniq ko‘rinadi. Bayron she’riyatida tabiat – inson ruhiy holatini aks ettiruvchi, erkinlik va ehtirosni uyg‘otuvchi qudratli kuch sifatida tasvirlanadi. Lok-na-Gar tog‘lari, sharsharalar va chaqmoqlar obrazlari inson qalbidagi ehtiros va erkinlik intilishlarini ramziy tarzda namoyon etadi, muhabbat esa bu tabiat qudrati bilan uyg‘unlashib, shaxsiy ichki dunyoni kengaytiruvchi ruhiy portlash sifatida ifodalanadi. Shu bilan birga, Nodirabegim g‘azallarida tabiat tasviri va muhabbat konsepti o‘zbek romantik an’analariga xos nozik, lirik va psixologik tusda talqin etiladi. Bahor, gullar, osmon va boshqa tabiat elementlari muhabbatning uyg‘onishi, go‘zallik va ichki kechinmalarni aks ettiruvchi ramz sifatida ishlatiladi. Nodira muhabbatni shaxsiy iztirob, ehtiros va iroda bilan bog‘lab, uni inson ruhining kamoloti va ichki o‘sishini rag‘batlantiruvchi kuch sifatida ko‘rsatadi. Natijada Bayron va Nodirabegim she’riyatida tabiat va muhabbat konseptlari nafaqat badiiy manzara va hissiy holatni ifodalash vositasi, balki insonning ruhiy, estetik va axloqiy tajribasini anglash uchun g‘oyaviy-estetik asos sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, ingliz va o‘zbek romantik poetikasida tabiat va muhabbat uyg‘unligi universal poetik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ulug‘bek Hamdamov, Abdug‘opir Qosimov. Jahon adabiyoti. Toshkent, “Akademnashr”, 2024.

(2). Yorqinoy Hamroyeva. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2007.

(3). Jerome McGann. Byron and the poetics of Adversity. Cambridge University Press, 2022.

(4). Rahmonov D. Qo‘qon adabiy muhiti va ayol shoiralar ijodi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2015.

(5). To‘xtasin Jalolov. O‘zbek shoiralari. T., 1970.

(6). Mahbuba Qodirova. Davr Nodirasi (Nodiraning hayoti va ijod yo‘li). Toshkent, “Fan”, 1991.

(7). Naim Karimov. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2015.

(8). Bayron. Saylanma, she’rlar, dostonlar. T., 1974.

(9). Rahmonov D. Qo‘qon adabiy muhiti va ayol shoiralar ijodi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2015.

(10). Nodira Devon. “Toshkent”, “Fan”, 1992.

Muxammedova Xulkar Eliboyevna (O‘zDJTU professori v.b., filologiya fanari doktori;
E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

SYUZEN HILL IJODIDA GOTIK ROMAN XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada taniqli ingliz yozuvchisi Syuzen Xillning gotik roman janridagi mahorati, asarlarining o‘ziga xos badiiy xususiyatlari va an’anaviy gotika unsurlarining zamonaviy adabiyotga tatbiqi tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida muallifning muhitni yaratish, qo‘rquv psixologiyasini ochish va makon obrazidan foydalanish mahorati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *gotik, ingliz, roman, adiba, uslub, tasvir.*

Мухаммедова Хулкар Элибоевна (УзГУМЯ, доктор филологических наук;
E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

ОСОБЕННОСТИ ГОТИЧЕСКОГО РОМАНА В ТВОРЧЕСТВЕ СЬЮЗЕН ХИЛЛ

Аннотация. *В данной статье анализируется мастерство известной английской писательницы Сьюзен Хилл в жанре готического романа, рассматриваются своеобразные художественные*

особенности её произведений и адаптация традиционных готических элементов в современной литературе. Основное внимание в исследовании уделено искусству автора в создании атмосферы, раскрытии психологии страха и использовании образа пространства (локуса) как художественного приема.

Ключевые слова: *готический, английский, роман, писательница, стиль, изображение.*

Mukhammedova Khulkar Eliboyevna (UzSWLU, associate professor, Doctor of Science;
E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

ARTISTIC FEATURES OF A GOTHIC NOVEL IN SUSAN HILL WORKS

Annotation. *This article analyzes the proficiency of English writer Susan Hill in the gothic novel genre, examining the distinctive artistic features of her works and the adaptation of traditional gothic elements within contemporary literature. The research focuses on the author's mastery of atmospheric construction, the exploration of the psychology of fear, and the strategic use of spatial imagery (locus) as an artistic device.*

Keywords: *gothic, English, novel, female writer, style, description.*

Kirish. Syuzen Hill (Susan Hill) zamonaviy ingliz adabiyotining eng yorqin vakillaridan biri bo'lib, uning ijodida gotika an'analari yangicha talqin va psixologik teranlik bilan boyitilgan. Uning, ayniqsa, "The Womn in Black – Qora libosli ayol" asari jahon gotik adabiyotining klassik namunasiga aylangan. Mazkur asar 1983-yilda yaratilgan bo'lib, unda muallif tomonidan gotik elementlar mahorat bilan foydalanilganligi kuzatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Susan Hill ijodi turli jihatlari adabiyotshunoslikda alohida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Adibaning ijodini o'rgangan A.Noring va J.Erikson o'z tadqiqotlarida Hil asarlarining gotik estetika va narratologik tuzilishini tahlil qilgan. Xorij tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarda gotik adabiyotning ko'plab jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotchi Krishna Prasad Sharma tadqiqotida "sukunat" (silence) va ayol obrazining ijtimoiy cheklanishini gotika prizmasi orqali tahlil qiladi [3;65 p.]. Tadqiqotchi asarni "Radikal ayol gotikasi" (Female Gothic Horror) sifatida baholaydi va 1980-yillardagi ijtimoiy xavotirlar bilan bog'laydi. G.Wisker ishida yozuvchining ruhga nisbatan yondashuvi tahlil qilinadi [5;49 p.]. Uning ruhlari shunchaki qo'rqinchli emas, balki jamiyat tomonidan chetlatilgan, adolatsizlikka uchragan ayolning achchiq isyonini ifodalaydi. Shtefkova Zuzana tadqiqotida Susan Hill asarlarida makon Ill Marsh Uyi va muhitning personaj sifatida namoyon bo'lishini o'rganadi [4;110 p.]. Bunda taqdiqotchi Ill Marsh uyning quruqlikdan suv toshqini orqali uzilib qolishi qahramonning tashqi dunyodan va yordamdan mahrumligini anglatadi. Bu makon nafaqat bino, balki qahramonning ruhiy tushkunligini aks ettiruvchi "tirik organism"ga xosligini ochib beradi. Muallif ijodini o'rgangan Labudova Katarina esa asardagi "keksalik" va "gender" masalalarini klassik Viktoriya davri gotik arxetiplari (vampir, ruh) bilan qiyoslaydi [2;54 p.]. Tadqiqotchi yozuvchining goika tasvirlashdagi ikki muhim jihatiga e'tibor qaratadi. Bu gender va keksalik orqali xotiraning jonlanishidir. Gender orqali asarda tasvirlangan ayolning jamiyatdan chetlatilishi qanday qilib dahshatli "qasoskor" obraziga aylanishini ko'rsatib beradi. Keksalik orqali xotiraning jonlanishi esa gotik romanlarda qahramonning qarishi va uning o'tmishdagi xotiralari bilan yuzlashishi – qo'rquv psixologiyasining bir qismi sifatida tahlil qilinadi. Yuqorida tahlil qilingan tadqiqot ishlarida Susan Hill igodida aks etgan gotik elementlar turli jihatdan o'rganilganligini namoyon qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. XVIII–XIX asrlarda paydo bo'lgan gotik roman janri, datslab, Horas Uolpol, Ann Redklif, Bram Stoker ijodida namoyon bo'lgn bo'lsa, XX asr oxiri va XXI asr boshiga kelib, Syuzen Hill ijodida yangi nafas oldi. Hill klassik gotika unsurlarini: tashlandiq uylar, tumanli landshaftlar va o'tmish arvohlarini – inson ruhiyatining chuqur qatlamlari bilan bog'laydi. Uning asarlari shunchaki "qo'r-qinchli hikoya" emas, balki yo'qotish, qayg'u va aybdorlik hissi haqidagi falsafiy mushohadadir.

Tahlil va natijalar. Muallif tasvirlagan mazkur asarning dastlabki sahifalarida biz uyning tasviriga duch kelamiz. Mazkur uydagi yashirin sir va qora libosli ayolning soyasi paydo bo'lish tasvirlari asarni yanada gotik elementlarga boyligini namoyon qiladi. Mazkur tasvirlar XIX asr viktorian ingliz yozuvchisi Charlz Dikkensning "Katta Umidlar" asaridagi muhitni eslatadi. Asar voqealari Artur Kips tomonidan hikoya qilinadi. Angliyaning sharqiy hududida joylashgan Marsh Ill uyida sirli voqealar bo'layotganligi haqida turli mishmishlar yosh advokat Artur Kipsni shu uyiga yetaklab keladi. Uydagi qorong'ulik sababini tushunishga uingan Artur uyning bekasi bo'lgan miss Drablo bilan bo'lgan suhbatlashishga urinadi. Biroq uy bekasi bunga unchalik ham ro'yxushlik bermaydi. Uyda bir necha kun qolishga izn sor'ragach, u uyda begona ayolga tegishli bo'lgan maktublarni topadi. Bu maktublarda Janet Hamfri va uning o'g'li haqida yozilgandi. U bunga izoh so'raydi. Ammo yosh advokat ko'plab narsalarga qo'shnilardan oydinlik kiritadi. Misis Drabloning singlisi Janet Hamfri turmushga chiqib farzandli bolganligi va turli sabablar bilan opasiga bolaga qarab turishi uchun berganligi va natijada bolani qaytarib berishni istamagan misis Drablo singlisini o'ldirganligini aniqlaydi. Biroq qo'lida yetarlicha dalillar bo'lmaganligi sababli uni qat'iy ayblay olmaydi

va uyiga qaytadi. Kunlardan bir kuni Artur Kipsning xotiniga qora libosli ayol arvohi tashlanadi. Ayol yaxshigina jarohat oladi. Bundan Artur Kips ishni oxirigacha yetkazish kerakligini tushunib yetadi. Artur Kipsni qora libosli ayol ta'qib qilishini esa muallif quidagicha tasvirlaydi: *"Qora libosli ayol hatto bu yerda ham meni ta'qib qilayotgandek edi; u go'yo karvotiмning oyog'ida o'tirar, uxlab yotganimda yuzini to'satdan yuzimga yaqinlashtirib pastga egilardi, men esa dahshat ichida qichqirib uyg'onib ketardim – The Woman in Black seemed to haunt me even here ,to sit on the end of my bed ,to push her face suddenly down close to mine as I lay asleep, so I awoke crying out in terror"* [1;38 p.]. *Tasvirda muallif tomonidan ishlatilgan "haunt* – ingliz gotikasida ham "ta'qib qilish", ham "ruh bo'lib ko'rinish" ma'nosini anglatib, "ta'qib qilish" asardagi ruhiy bosimni yaxshi ifodalaydi, *push her face close to mine* – bu harakatdagi to'satdan va tajovuzkor yaqinlikni ifodalasa, *crying out in terror* – shunchaki "baqirib" emas, balki ichki qo'rquv va vahimani ko'rsatish uchun "dahshat ichida qichqirib" yuborishni ifodalaydi. Mazkur asardan keltirilgan parcha biz tahlil qilayotgan "qo'rquv psixologiyasi" sini ochib berishga xizmat qiladi.

Asarda muallif tuman va zulmatdan uyning muhitini tasvirlashda mahorat bilan foydalanadi. Ill Marsh uyi atrofidagi quyuq tuman asar personajlarning ham ko'zini, ham ongini xiralashtiruvchi vosita sifatida aks etadi. O'tmishning ta'qibi esa Gotik romanlarning asosiy qoidasi–o'tmish hech qachon o'tmishda qolmaydi, uning soyasi yo'qolmasligini namoyon qiladi. Asarda tasvirlangan qahramonlari, ko'pincha, begona bir oilaning fojiali sirlarini ochishga majbur bo'ladilar. Qasoskor arvohlar tasviri esa asarda "arvoh" shunchaki illuziya emas, balki tiriklar dunyosiga adolatsizlik yoki tugallanmagan qayg'u tufayli qaytgan qudratli kuchdir. An'anaviy gotikadan farqli o'laroq, Hill o'quvchini faqat tashqi effektlar bilan qo'rqitmaydi. U qahramonning ichki qo'rquvi, shubhalari va yolg'izligini birinchi planga olib chiqadi. Bu esa o'quvchida voqealarning haqiqiyligiga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Maskur asar Syuzen Hillning "tashrif qog'ozi" hisoblanadi. Romanda gotik roman uchun xos bo'lgan barcha elementlar mukammal darajada jamlangan bo'lib ular quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Sirli uylar. Nine Lives Causeway (To'qqiz hayot yo'li) – bu yo'l faqat suv qaytgandagina ochiladi, bu esa qahramonni tashqi dunyodan butunlay uzib qo'yadi.
2. Bolalar o'limi mavzusi. Gotikada eng og'riqli va qo'rqinchli mavzulardan biri bo'lgan bolalar o'limi asarning markaziy nuqtasida turadi.
3. Hissiy kuch. Jennet Hamfrining onalik mehri qasoskor nafratga aylanishi asarning dramatik kuchini belgilaydi.

Syuzen Hillning uslubi vazmin, ammo nihoyatda tasviriy. U ortiqcha so'zlardan qochadi, biroq har bir detal – eshikning g'irchillashi, shamolning uvillashi yoki bolalar aravachasining ovozi o'quvchining tasavvurida aniq gavdalanadi.

Xulosa va takliflar. Syuzen Hill ijodi gotika janrining o'lmasligini isbotladi. U klassik gotikaning tashqi atributlarini saqlab qolgan holda, unga zamonaviy psixologizm va insoniy fojiani olib kirdi. Uning romanlari shunchaki qo'rqitish uchun emas, balki o'lim, ayriliq va inson ruhining chidamlilik chegaralari haqida o'ylash uchun yozilgan. Hill zamonaviy gotik roman janrining haqiqiy malikasi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Hill S. The Woman in Black. London, Hamish Hamilton, 1983, 350 p.

(2). Labudova K. Narrating the dynamics of aging and gender through Victorian Gothic archetypes: Susan Hill's "The Woman in Black" and "the Mist in the Mirror. Journal of English and American Studies, 2014, 120 p.

(3). Sharma P.K. Politics of Gothic: A Study of Silence in Susan Hill's The Woman in Black. Katmandu: Tribhuvan University Press, 2011, 150 p.

(4). Shtefkova Z. The Use of Space in Gothic Fiction. Czech: Masaryk University Press, 2014, 130 p.

(5). Wisker G. It's a Ghost: The Ghost Story in the Twentieth Century. London: Continuum, 2005, 130 p.

Iusupova Kandilatxon (Renessans ta'lim universiteti "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrasi dotsenti (PhD); E-mail: kandilatyusupova71@gmail.com)

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA INGLIZ ROMANCHILIGI MASALALARINING QIYOSIY TAHLILI: NAZARIY ASOSLAR VA BADIIY TALQINLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek romanchiligining qiyosiy-tipologik tadqiqi, o'zbek olimlarining bu boradagi ilmiy qarashlari va ayol obrazi talqinidagi konseptual yangiliklar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy determinizm, psixologizm, milliy madaniy kodlar va gender munosabatlarining badiiy matndagi ifodasi diqqat markazida turadi. Ulug'bek Mamajonov va Saodat G'aniyeva kabi olimlarning ilmiy xulosalari asosida ingliz realizmining o'zbek adabiyotiga ta'siri va ayol obrazining badiiy tadriji yoritib berilgan.*